



**Ish bajarilgan,
haq esa “tuya” qilingan**

3-betda o'qing



**Sportchilarga
berilgan imtiyozlardan
xabardormisiz?**

5-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
9-YANVAR
SESHANBA

№ 01
(1413)

www.hudud24.uz



www.adolatmarkazi.uz

[telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/)

facebook.com/hudud24official/

KUN NAFASI



ADLIYADA “OCHIQ ESHIKLAR KUNI”

Bir necha kun avval Adliya vazirligida “Ochiq eshiklar kuni” o'tkazilishi haqida e'lon berilgan edi. O'quvchi va talaba yoshlar, vazirlik faoliyatiga qiziqqan turli soha vakillari, turli yoshdagi fuqarolar belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tib, “Adliyaga sayohat” qilish istagini bildirishdi.

Vazirlik faollari, adliya muassasalari bu kunga alohida tayyorgarlik ko'rishdi. “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri katta va ahil adliya oilasi faoliyatini butun bo'y-basti bilan o'zida aks ettirdi. Tadbirda vazirlikka keluvchi mehmonlar uchun barcha sharoitlar yaratildi. Vazirlik va uning muassasalari faoliyatini to'la aks ettiruvchi ko'rgazmali burchaklar tashkil qilindi. Mazkur burchaklarda sud-ekspertizasiga oid jihozlardan tortib, davlat xizmatlari markazlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga, Toshkent davlat yuridik universitetining ta'lim jarayoniga tegishli tarqatma materiallar, arxiv hujjatlaridan namunalar, intellektual mulkka tegish-

li ixtiro, foydali model, sanoat namunalorigacha, huquqiy nashrlar ko'rgazmasi ham tashkil qilindi. Tizimda uzoq yillar ishlagan tajribali mutaxassislar o'zlarining ish faoliyatini mehmonlarga qiziqarli tarzda tushuntirib berishdi, “Adliyaga sayohat” tadbirida ular mahoratli gid vazifasini o'tashdi. Ishtirokchilar dastlab Adliya vazirligi binosidagi Adliya organlari tarixi muzeyi bilan tanishdi. Adliya tarixi bilan tanishuv barcha uchun qiziqarli bo'ldi. Muzey bo'ylab ekskursiyadan so'ng tadbir mehmonlari bo'lgan yoshlar uchun qiziqarli viktorina o'tkazildi va g'oliblariga esdalik sovg'alari topshirildi.

Davomi 2-betda

2 KUN NAFASI

☞ Davomi. Boshlanishi 1-betda



ADLIYADA

“Ochiq eshiklar kuni”



“Adliyaga sayohat”ning yana bir qiziq qismi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi tomonidan tashkil qilingan yangi huquqiy nashrlar ko'rgazmasi bo'ldi. Ishtirokchilar O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik hujjatlari milliy bazasi – Lex.uz faoliyati, yangi tahrirdagi kodekslar, normativ-huquqiy hujjatlar, darsliklar va bolalar uchun huquqiy nashrlar, “Inson va qonun” gazetasi va “Huquq va burch” jurnalining yangi sonlari bilan ham tanishishdi. Bundan tashqari, ishtirokchilar mutaxassislardan o'z-o'ziga huquqiy xizmat ko'rsatish “Legal Tech” axborot tizimi orqali “yurxizmat.uz” elektron tizimida huquqshunos (advokat) ishtirokchisiz huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirilgan holda elektron shaklda tayyorlash va foydalanishni ham o'rganishdi, “bolahuquqlari.uz” portali faoliyati bilan ham yaqindan tanishishdi.

“Ochiq eshiklar kuni”da o'zining bepul huquqiy maslahatlari bilan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirib kelayotgan, fuqarolarning chin madadkori bo'lgan “Madad” nodavlat notijorat tashkiloti xodimlari ham ko'rgazmali huquqiy targ'ibot materiallari, yangi nashrlar va qiziqarli tarqatma materiallari bilan faol ishtirok etishdi.

Tadbirida X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining tajribali xodimlari ham markaz faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazmasi bilan qatnashishdi. Tadbir ishtirok-

chilari uchun markaz faoliyatiga oid ko'rgazmali burchaklar tashkil qilindi. Tashrif buyuruvchilarga markazda o'tkaziladigan ekspertiza turlari, laboratoriyalarda foydalaniladigan asbob-uskunalar yaqindan tanishtirildi.

Jumladan, Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasi, sud avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi, sud-iqtisodiy ekspertizasi laboratoriyasi, sud yong'in texnikaviy ekspertizasi, sud-kompyuter texnikaviy ekspertizasi, sud-balistika ekspertizasi, sud-fonografiya ekspertizasi hamda markazning sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo'limi, tovarshunoslik ekspertizasi, sifat menejmenti bo'limlari faoliyati bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi.



Ma'lumki, har yili respublika bo'ylab “Kontrafaktsiz oy” oyligi o'tkazib kelinadi. Har bir fuqaro iste'molchi sifatida kontrafakt mahsulotlar sotib olib, aldanib qolmasligi uchun Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk markazi xodimlari tomonidan huquqiy targ'ibot tadbirlari va aholi o'rtasida doimiy ravishda huquqiy tushuntirish ishlari olib boriladi. “Ochiq eshiklar kuni”da ham markazning tajribali xodimlari tovar belgisiga bo'lgan huquqlarni buzishning oqibatlarini, kontrafakt mahsulotlar va ularga aldanib qolmaslik yo'llari, mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlar, ko'rgazmali targ'ibot materiallari bilan ishtirok etishdi.

Tajribali mutaxassislar shu kuni tadbir qatnashchilari bo'lgan yoshlar bilan qiziqarli savol-javob olib borishdi. Shunday qilib yoshlarimiz milliy brend mahsulotlarimizni qay darajada bilishlarini sinovdan o'tkazishdi. Topqirlar esdalik sovg'alarini ham olishgan bo'lsa, qiziqqon o'quvchilar “Foydali model nima?”, “Ixtiro nima?”, “Seleksiya yutug'i nima?”, “Patent nima?” deganga o'xshash savollariga hamda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassis xodimlardan javob olishdi.

Ayniqsa, “Ochiq eshiklar kuni”ga alohida tayyorgarlik bilan kelgan Respublika davlat arxivining tarixiy eksponatlar ko'rgazmasi yig'ilganlarda katta qiziqish uyg'otdi. Shu kuni



O'zbekiston tarixiga oid qimmatli ma'lumotlar, milliy san'atimiz, adabiyotimiz, fan va texnika tarixiga oid arxiv hujjatlarigacha tilga kirdi. Jumladan, Sohibqiron Amir Temurning hayotini o'rganishga oid arxiv ma'lumotlari ham qayta jonlandi, ko'pchilik yoshlar arxiv hujjatlari yonida uzoq qolib ketishdi. Ular hozirgacha o'zleri o'qigan kitoblar, ustozlardan eshitgan ma'lumotlari bilan arxiv hujjatlarini solishtirib ko'rishdi go'yo. Arxiv tizimida ko'p yillar ishlagan mutaxassislarning qimmatli fikrlari, aytgan tarixiy faktlari esa ular uchun yangilik bo'ldi. Ular bir zumda yaqin va uzoq tarixga, qadim va ko'hna shaharlarimizdagi tarixiy obidalar ichiga kirib, O'zbekistonning boy va qiziqarli arxivi olamiga tushib qolishdi. Ayniqsa, Buxoro amirligi-yu, Xiva xonligidagi tarixiy hujjatlar namunalari, milliy kinofondimiz arxiv ma'lumotlaridan namunalar, musiqa san'atimiz fidoyilarining hayoti ham tadbir mehmonlari uchun esda qolarli bo'ldi. Ishtirokchilar mustaqillik davri va yangi O'zbekiston tarixiga oid arxiv ma'lumotlari bilan ham yaqindan tanishishdi.


Tadbir ishtirokchilarining Adliya vazirligining zamonaviy va shinam, boy kutubxonasidagi kitoblar olamiga sayohati ham o'zgacha bo'ldi. Yoshlar orasidan kimdir shu kutubxonaga a'zo bo'lib, kitob olib o'qib turish taklifini bildirsa, yana kimdir shu kungi tadbirning o'zidayoq topqirligi, hozirjavobligi sabab esdalik uchun sovg'aga kitob oldi. Tizim faoliyati bilan yanada yaqindan tanishgach, boshqa bir yoshning qalbiga Adliya vazirligi tizimida ishlab, “Oyning eng yaxshi xodimi”, “Yilning eng yaxshi xodimi” bo'lish orzusi tushdi. Bir so'z bilan aytganda, huquqshunoslik sohasida o'qiyotgan o'quvchi va talaba yoshlarning nigo-hida kelajakka umid va ishonch uchunlari porladi. Aynan “Adliyaga sayo-



hat” sabab ular bir qator yo'nalishlarni birlashtirgan katta va ahil adliya oilasining bir bo'lagi ekanini hozirdanoq his qilishdi.

Yoshlar bilan suhbatlashganimizda huquqshunoslik kasbiga bolalikdan mehr qo'yganini aytib, kelajakda biri advokat, biri notarius, yana biri sud sohasi xodimi bo'lish istagida ekanini bildirishdi. Biz fursatdan foydalanib bir olam taassurotlaru shirin o'y-xayollar bilan band yoshlarni suhbatga tortdik.

– Men kelajakda yetuk huquqshunos bo'lib, soha ravnaqiga, mam-lakatimizda qonun ustuvorligini va inson huquqlarini ta'minlashga o'z hissamni qo'shish niyatidaman. Bugungi tadbirdan olayotgan qimmatli ma'lumotlarimiz, bir olam taassurotlarim hademay oliygohda o'qish jaryonimda, so'ngra ish faoliyatimda juda asqotishiga ishonaman, – deydi akademik litseyning 2-bosqich o'quvchisi Abror Xudoyberdiyev.



Barcha ishtirokchilar, ayniqsa, yoshlar uchun “Ochiq eshiklar kuni” nafaqat tanishuv kuni bo'ldi, balki, sinov onlariga, hayajonli daqiqalarga ham boy kun bo'ldi. Ishtirokchilar davlat xizmatlari markazi faoliyati hamda aholiga sayyor davlat xizmatlari ko'rsatish uchun ajratilgan maxsus avtobuslarni ham ko'rib, psixologik testdan ham o'tishdi.

Ayniqsa, vazirlikning aholi bilan muloqot va axborot robitasi bo'lgan Media markazi faoliyati barchaga manzur bo'ldi. Ishtirokchilar media markazning zamonaviy jihozlangan montaj xonasi, huquqiy mavzudagi ko'rsatuvlar va teledasturlar, to'g'ridan-to'g'ri efilarga mo'ljallangan studiyalarida ham bo'lishdi. Ko'rsatuvlarni tasvirga olish jarayoni bilan ham yaqindan tanishishdi.

Shu kuni vazirlikka kelgan o'quvchi va talaba yoshlar, soha xodimlarining oila a'zolari, turli yoshdagi fuqarolar, jurnalistlar ham Adliya vazirligi va tizim faoliyati bilan yaqindan tanishishdi. Ishtirokchilar adliya organlari va muassasalari faoliyatiga oid kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Xuddi shunday “Ochiq eshiklar kuni” 6-yanvar kuni Samarqand hamda Namangan shaharlari, shuningdek, Chilonzor tuman davlat xizmatlari markazlarida ham bo'lib o'tdi.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
Xurshid SULTONOV,
“Inson va qonun” muxbirlari

ISH BAJARILGAN, HAQ ESA “TUYA” QILINGAN




Qurilish yo'nalishidagi “Shams-Nurafshon” xususiy korxonasi rahbarlik qilib kelayotgan tadbirkor Sh. Rasulov bilan Boysun tuman tibbiyot birlashmasi o'rtasida 2023-yil 23-iyunda tuzilgan shartnomaga asosan tuman tibbiyot birlashmasi tasarrufidagi 8-sonli oilaviy poliklinikaning “Xo'jabulg'on” shoxobchasi binosi joriy ta'mirlab berilgan bo'lsa-da, 260 million 689 ming 851 so'm miqdoridagi qarzdorlik to'lanmagan.

Bundan tashqari, mazkur korxonalar bilan tibbiyot birlashmasi o'rtasidagi 2023-yil 20-oktabrda tuzilgan shartnomaga asosan birlashmaga qarashli “Qabul emergency department” bo'limini joriy ta'mirlash ishlari uchun ham 293 million 300 ming 632 so'm qarzdorlik to'lab berilmayotganidan norozi bo'lgan tadbirkor amaliy yordam so'rab, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

O'rganish natijasiga ko'ra, xususiy korxonalar manfaatini ko'zlab, Sherobod tumanlararo iqtisodiy sudiga javobgardan mavjud qarzdorliklarni undirib berish yuzasidan da'vo arizalari kiritildi.

Sudning tegishli hal qiluv qarorlariga ko'ra, tuman adliya bo'limining da'vogari – “Shams-Nurafshon” xususiy korxonasi manfaatlarida kiritilgan da'vo arizalari to'liq qanoatlanirilib, javobgar – tuman tibbiyot birlashmasi hisobidan xususiy korxonalar foydasiga jami 553 million 990 ming 483 so'm miqdoridagi qarzdorlikni undirish belgilandi va tegishli tartibda to'lanishi ta'minlandi.

Nodir MAMADIYEV,
Boysun tuman adliya bo'limi boshlig'i



Mazkur qarorlar va qaror osti hujjatlari o'rganib chiqilganda, soliq organi tomonidan tekshiruv materiallari ko'rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to'g'risida soliq to'lovchini ko'rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qilinmagan va sayyor soliq tekshiruvi o'tkazilishining boshqa tartib-qoidalariga rioya etilmagan aniqlandi.

Soliq kodeksining 158-moddasida soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra soliq organi tekshiruv materiallari ko'rib chiqiladigan sana, vaqt va joy to'g'risida soliq to'lovchini ko'rib chiqish boshlanguniga qadar kamida ikki ish kuni oldin xabardor qiladi, deb ko'rsatilgan.

Shuningdek, kodeksning 157-moddasiga ko'ra, soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish tartib-taomilining muhim shartlarini buzish yuqori turuvchi soliq organi yoki sud tomonidan soliq organining soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish va (yoki) soliq summalarini qo'shib hisoblash to'g'risidagi qarorini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Shunga ko'ra, soliq idoralarning yuqoridagi qarorlarini haqiqiy emas, deb topish yuzasidan Andijon tumanlararo ma'muriy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning qarori bilan tadbirkorga nisbatan jami 40 million so'm miqdorida jarima (moliyaviy sanksiya) qo'llash to'g'risidagi 4 ta qaror haqiqiy emas deb topildi.

Abbosjon RAHMONOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

QAROR SUDDA HAQIQIY EMAS DEB TOPILDI

Andijon shahrida faoliyat quritaotgan “Safu marva umidi” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari N. Mamadaliyevning Andijon viloyat davlat soliq boshqarmasi hamda Andijon shahar davlat soliq inspeksiyasi xatti-harakatlaridan norozi bo'lib qo'llagan murojaati viloyat adliya boshqarmasi tomonidan qonun doirasida o'rganildi.

O'rganish davomida o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlarining yakuni bo'yicha shahar davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari tomonidan tadbirkorga nisbatan 2023-yil 13-fevralda, 7-martda va 14-sentabrda tegishli qarorlar chiqarilgani, shuningdek, viloyat davlat soliq boshqarmasi boshlig'i o'rinbosarining 2023-yil 2-iyundagi tegishli qarori qabul qilindi ma'lum bo'ldi.

Fuqaro S. Isaqulov 2016-yil 22-avgustda Samarqand viloyat ichki ishlar boshqarmasiga qarashli jazoni ijro etish muassasasining xom g'isht ishlab chiqarish sexida ishlash jarayonida tan jarohati olgan. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa va salomatlikka boshqa xil zarar yetkazilgani to'g'risida muassasa tomonidan 2016-yil 4-oktabrda dalolatnoma rasmiylashtirilgan.

TANASI BOSHQA – DARD BILMAS...

Mazkur hodisa yuzasidan 8 sentabr kuni Samarqand viloyat bandlik bosh boshqarmasining xulosasida S. Isaqulovga Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi qarori ilovasiga muvofiq “Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatlikning boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni to'lash Qoidalariga” ko'ra yetkazilgan zarar to'lovini to'lab berish ko'rsatilgan. Jarohat olgan fuqaroga 2017-yil 7-martda Samarqand viloyat bosh tibbiy-mehnat ekspertizasi komissiyasi tomonidan muddatsiz ikkinchi guruh nogironligi belgilangan. Ammo 2019-yilda jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan bo'lishiga qaramasdan, unga zarar summasi to'lanmagan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro Kattaqo'rg'on shahar adliya bo'limiga yordam so'rab murojaat qilgan.

Murojaat adliya bo'limi tomonidan o'rganilib, S. Isaqulov manfaatini ko'zlab, fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. 2016-yil 1-sentabrdan 2023-yil 1-oktabrga qadar bo'lgan davrda mehnat jarohati tufayli kasbiy mehnat layohatini yo'qotganlik uchun har oyda to'lanishi lozim bo'lgan 43 million 950 ming 218 so'm zararni va 2023-yil 1-oktabrdan boshlab har oyda 755 ming 882 so'm zararni undirib berishni, keyinchalik pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori oshishiga mutanosib ravishda zararni to'lab borish majburiyatini yuklashni va ma'naviy zarar undirishni so'radi.



Amaldagi Mehnat kodeksining 321-moddasiga ko'ra, ish beruvchi xodimning mehnatda mayib bo'lishi va (yoki) kasb kasalligi tufayli hayotiga yoki sog'lig'iga yetkazilgan ziyonning o'rnini qoplashi shart.

Sud majlisida tarafalarning fikr va mulohazalari eshitilib, sud IIV Jazoni ijro etish departamenti 38-sonli manzil koloniyadan S. Isaqulovning foydasiga 4 million 258 ming 848 so'm bir yo'la to'lanadigan nafaqa, 2016-yil 1-sentabrdan 2023-yil 1-oktabrga qadar bo'lgan davr uchun 43 million 950 ming 218 so'm to'lovlar hamda 2 million so'm ma'naviy zarar undirish va unga 2023-yil 1-oktabrdan boshlab har oyda 755 ming 882 ming so'mdan pensiyani hisoblashning bazaviy miqdoring oshishiga mutanosib ravishda zararni undirish to'g'risida qaror qabul qildi.

Abbos TILAVOV,
Kattaqo'rg'on shahar adliya bo'limi bosh maslahatchisi

Ustama to'lovi to'lanmagan



Qiziltepa tuman tibbiyot birlashmasining o'rta tibbiyot xodimlari uchun mehnatga haq to'lashdagi qonunbuzilishlarga yo'l qo'ygani adliya idoralari tomonidan Prezident farmonlari va hukumat qarorlari ijrosini o'rganish jarayonida aniqlandi.

Ma'lum bo'lishicha, tibbiyot muassasasida Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 10-sentabrdagi “O'zbekiston Respublikasi tibbiyot tashkilotlari tuzilmasini yanada optimallashtirish va sog'liqni saqlash tizimi tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan ustama to'lovlari to'lanmagan. Tibbiyot birlashmasida 46 nafar xodimga 2019-2023-yillar davomida 161 million 200 ming so'mdan ortiq mablag' to'lanishi ochiq qonunbuzarlikka yo'l qo'yilgan.

Vaholanki, hukumat qarorining 6-ilovasiga muvofiq tibbiyot tashkilotlari xo'jalik bekalari har oy eng kam ish haqining 25 foizida ustama to'lash belgilangan bo'lib, 2019-yil 1-sentabrdan boshlab, eng kam ish haqi o'rniga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori bo'yicha to'lov amalga oshirilgan. Aslida bu holat xalq ta'biri bilan aytganda, “Ali Xo'ja-Xo'ja Ali” emasdi. Agar bu masalaga adliya bo'limi aralashmaganida to'lovlardagi farq tufayli tuman tibbiyot birlashmasi hisob raqamida 46 nafar xo'jalik bekasining 161 million so'mdan ortiq ustama haqi qolib ketardi.

Abduvali ASADOV,
Qiziltepa tuman adliya bo'limi boshlig'i

4 REKLAMA O'RNIDA



“SHAFFOF YO'L” PLATFORMASI – AMALDA

Avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilishga keyingi yillarda jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Eng murakkab, uqchimini kutayotgan muammolar uchun har qili qabul qilinayotgan davlat dasturlarida boshqa tizimlar singari yo'llarning infratuzilmasini zamon talablariga javob beradigan darajaga keltirish lozimligi qat'iy belgilab qo'yildi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-fevraldagi “Avtomobil yo'llari sohasida ochiqlik standartlarini joriy etish va sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga ko'ra, “Shaffof yo'l” platformasi ishga tushirildi. Mazkur platformada joylashtirilishi lozim bo'lgan 17 turdagi ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlandi.

2023-yildan boshlab keyingi yilda qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, ta'mirlanishi nazarda tutilgan barcha toifadagi yer uchastkalarini xaritaga joylashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. “Shaffof yo'l” platformasining alohida sahifasi orqali aholining yo'llar nosozligi, shuningdek, yo'llarda va yo'l bo'yida xavfsiz harakatlanishi uchun yuzaga kelgan favqulodda texnik muammolar (svetoforlar va yo'l belgilar o'rnatilmagani yoki ularning shikastlangani, tabiiy ofatlar natijasida yuzaga keladigan hodisalar ortidan hosil bo'ladigan oqibatlar) haqida foto-video murojaatlar jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladi.

IQTISODIYOTIMIZNING QON TOMIRI

Hududlarimizni kesib o'tuvchi xalqaro avtomobil yo'llari iqtisodiyotimizning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Hisob-kitoblarga qaraganda, yuk tashishning salkam 85 foizi, yo'lovchi tashishning 95 foizi shu soha vakillari hissasiga to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, avtoyo'llar ham temiryo'llar kabi iqtisodiyotimizning qon tomiridir. Yo'llar mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz raisligida o'tgan selektor yig'ilishlaridan birida alohida ta'kidlanganidek, yo'lsozlikda talab darajasidagi islohotlarni amalga oshirish uchun yillar davomida bir xillikka tayangan loyiha-yu, rejalar bilan endi ish yuritib bo'lmaydi. Bu borada hamkorlikni keng shakllantirish, izlanish va tashabbus ko'rsatish, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish sohaga xususiy sektor, tajribali yetuk mutaxassislarni keng jalb qilishni davrning o'zi ko'rsatib turibdi.

Jizzax viloyatida yo'lsozlik sohasida jahon andozalari darajasida infratuzilmani hayotga tatbiq etish bo'yicha ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyat avtomobil yo'llar hududiy bosh boshqarmasi tasarrufidagi “Jizzax mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi” DUKning ma'lumotlariga ko'ra, keyin-

gi yillar, ya'ni 2023-yildan 2030-yilgacha Sharof Rashidov tumanida 314 kilometr ichki xo'jalik yo'llarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, allaqachon ijroga kirishilgan. Hududlarni aylana ekanimiz, tumanda amalga oshirilgan ishlar e'tiborimizni tortdi.

– Ayni vaqtda tumanimizda 853 kilometr dan ziyod ichki yo'llar bor, – deydi korxonaning Sharof Rashidov tumani bo'limi boshlig'i Otabek Toshpo'latov. – Ichki yo'llarni ta'mirlash borasidagi ishlar hajmi yildan-yilga ortib boryapti. Yo'llarni sifatli ta'mirlash maqsadida zamonaviy loyihalardan foydalanilyapti. Ta'mirtalab yo'llar esa 314 kilometrni tashkil etadi. Yakunlangan yilda tuman bo'yicha 45 ta hudud-dagi ichki yo'llarda 58,2 kilometr uzunlikda ta'mirlash ishlari bajarildi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun 43,3 milliard so'm mablag' sarflandi. Bundan tashqari, viloyat rahbariyatining tashabbusi bilan shahar va tumanlarda og'ir hudud hisoblangan mahallalarning 325 kilometrlik yo'llarida tuproqli tekislash ishlari bajarildi. Bu yo'llarga shag'al yotqizildi. Bir so'z bilan aytganda, yo'llarni zamonaviy texnikalar yordamida sifat jihatidan yangilash, ta'mirlash va rekonstruksiya qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Yo'lsozlikning zamonaviy andozalariga asoslanib, tumanning “Birlik” ko'chasiga 360 metr sement-beton qoplamasi yotqizildi.

Suhbatdoshimizning aytishicha, yo'lsozlarning maqsadi – elning duosini olish. “Shaffof yo'l” jamoatchilik fikri orqali o'rganilmoqda. Bu jarayon qanday samara berayotganini Jizzaxdagi o'zgarishlar misolida ko'rish mumkin. Ochiqlik – Yangi O'zbekiston siyosatining asosiy talabi bo'lmoqda. Bu borada rasmiy idoralarda aholi fikrini o'rganishga mo'ljallangan platformalar yaratilib, islohotlarni hayotga tatbiq etish jarayonida xalqning ishtiroki bevosita ta'minlanmoqda.

XAYRLI LOYIHA

Darhaqiqat, “Shaffof yo'l” platformasi ana shunday xalqchil, xayrli loyihalardan biridir. “Ochiq budjet” axborot portali orqali tumanlar budjeti parametrlarida hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lar jamoatchilik fikri asosida shakllangan ichki xo'jalik yo'llarini ta'mirlashga yo'naltiriladi. Unga ko'ra, jamoatchilik

fikri asosida ichki yo'llarni ta'mirlashga takliflar qabul qilish har yili 10-yanvargacha, bildirilgan takliflar orasidan ovoz berish yo'li bilan aniqlab olish esa, 31-yanvargacha amalga oshiriladi.

2023-yil 1-yanvardan “Shaffof yo'l” platformasi to'liq ishga tushirildi. Fuqarolar har yili ichki yo'llarni ta'mirlashga doir faqat 1 ta taklifni kiritishlari, o'zi kiritgan taklifdan tashqari 1 ta taklifga ovoz berishi mumkin. Ular tomonidan tanlangan ichki yo'llar axborot portali avtomatik ravishda taklif sifatida shakllanadi va boshqa fuqarolarning ovoz berishi uchun imkoniyat yaratiladi. Har bir tuman va shaharlarda bildirilgan takliflar bo'yicha berilgan eng ko'p ovozlar sonidan kelib chiqib, yuqoridan pastga qarab saralanadi. G'olib takliflar tuman, shahar mahalliy budjetlari parametrlaridan hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun mablag'ning kamida 50 foizi doirasida takliflarni amalga oshirish qiymatini hisobga olgan holda avtomatik tarzda, ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi. Shunga ko'ra, Jizzaxdagi ichki yo'llar ham sement-beton qorishmasi bilan ta'mirlanmoqda.

Sharof Rashidov tumanida 34 ta mahalla mavjud bo'lib, Jizzax viloyatining eng tarqoq va hududiy jihatdan katta manzili hisoblanadi. Bu tuman hudud jihatidan G'allaorol, Paxtakor, Forish, Zomin tumanlariga chegaradosh. Ayni paytda tumanda “Tashabbusli budjet” va “Mening yo'lim” dasturi doirasida obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda.

ZAR QADRINI ZARGAR BILADI

Jarayonlar bilan yaqindan tanishish maqsadida “Qahramon” mahallasida bo'lganimizda, “Birlik” ko'chasida ichki yo'llar sement-beton qoplama orqali sozlanayotganiga guvoh bo'ldik.

– Bu mahallaga 90-yillarda ko'chib kelganimiz, – deydi mahalla faollaridan biri. – Bugungi o'zgarishlardan mamnunmiz. Sababi, yillar mobaynida yig'ilib qolgan muammolarning barchasi ijobiy yechim topyapti. Ayniqsa, qishloq hududida yo'lning ahamiyati katta. O'zingiz bilasiz, yozda chang, qishda loy ko'chada yurishning o'zi bo'lmaydi. Shuning uchun qishki yog'in-sochin kunlarga qolmasdan bizning “Birlik” mahallamizdagi 360 metrlik ichki yo'llarning sement-beton quyilib, ta'mirlanganidan juda xursandmiz.

Zar qadrini zargar biladi. Qishloq ahli uchun yangilanayotgan yo'lning ahamiyati suv va havoday muhimligini ham mahalladoshlarning o'zlari yaxshi bilishadi. Zamonaviy yo'lga harakatlanish imkoniyatini yaratilishi aholining turmush tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Jizzax viloyatining ichki ko'chalari birin-ketin sement-beton qoplama yo'llarga aylantirilishidan nafaqat “Qahramon” mahallasi ahli, balki boshqa mahallalar aholisi ham juda minnatdor. Negaki, o'tgan 2023-yilning o'zida viloyatdagi 1 ming 226 kilometr dan iborat ichki yo'llar yo'lsozlikning yangicha yondashuvi asosida sozlandi.

Sohada amalga oshirilayotgan bu

kabi yondashuv qishloq qiyofasini tubdan o'zgartirib, infratuzilmaning yaxshilanganini, aholi bugunidan, hayot tarzidan rozi ekanini anglatadi. Tajribaning ijobiy samarasi sabab yo'l ta'mirida yangicha amaliyotga alohida ahamiyat berila boshlandi. Bu jarayonda yo'l qoplamasining qalinligi asfaltga qaraganda 3 barobarga ortadi, xarajatlar ham kamayadi. Masalan, 2022–2023-yillarda Jizzax viloyatida 1 ming 800 kilometr uzunlikdagi ichki yo'llarni ta'mirlash orqali 29 milliard so'm mablag'ni iqtisod qilish imkoniyati yaratildi. Bitum eksporti cheklanib, mahalliy sement xomashyosidan foydalanish mana shunday imkoniyatga sabab bo'lmoqda. Natijada, qo'shimcha 55 kilometr yo'lni sozlash mumkin bo'ladi.



JIZZAXDA O'ZIGA XOS TAJRIBA BOR

Yo'lsozlikda, ichki xo'jalik yo'llarini zamonaviy tartibga keltirish borasida tumandagi soha xodimlarining ishlari o'rnak olsa bo'ladi. Ularning yana bir yutug'i – har yilning boshida tumanning 1-sektor rahbari ma'sullar bilan hamkorlikda hududlardan o'tuvchi yo'llarning infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan “Yo'l xaritasi” ishlab chiqiladi. Xarita asosida har bir hududning geopozitsiyasidan kelib chiqib, o'ziga xos loyihalar qo'llaniladi. Ayni mana shunday tartib bo'yicha ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, yangilarini qurish ishlari bajarilayotgani aholiga ham ma'qul kelmoqda. Qolaversa, qaysi qishloq yoki mahallada yo'l qurilish ishlari boshlansa, ana shu guruh vakillaridan iborat ishchi guruhi tuzilib, ular bajarayotgan ishlarni nazorat qilib borishadi. Bunday tajribaning viloyat miqyosida tatbiq qilinishi, birinchi navbatda, ajratilgan mablag'ni to'g'ri tasarruf qilishda va qaytadan yangilanayotgan yo'llarning sifatligini uzoq vaqt davomida saqlashda muhim o'rin tutayotgani diqqatga sazovordir.

Jizzaxlik yo'lsozlar ham viloyatdagi boshqa sohadagilar singari tadbirkorlikka tayanib, o'z ustida izlanishlar qilish, sohada sinalgan tajribalarni amaliyotga tatbiq etishning hadisini olishgan. Yo'lsozlar 2023-yilda barcha imkoniyatlarini ishga solib, 4 ming 134 kilometr ga yaqin ichki yo'llarni ta'mirlab, elning duosini olishdi. Sifatli yo'llarni qurish maqsadida barcha imkoniyatlar yaratildi, zarur texnik vositalar jalb qilindi. Yo'lsozlarning maqsadi – ezgu, sohada katta tajriba to'plagan mehnat jamoasi ta'mirlash ishlari amalga oshirishda, avvalo, sifatga e'tibor qaratmoqda. Ayni kunlarda ham tumanda yo'lsozlik ishlari qizg'in davom etmoqda.

Gulijahon ASHUROVA,
jurnalist



Vazirlar Mahkamasining 435-sonli qarori bilan tasdiqlangan, "Davlat xizmatlarini joqlarga chiqqan holda ko'rsatishning ma'muriy Reglamenti"ga muvofiq, 2023-ylning 1-oktabridan davlat xizmatlari Adliya vazirligining Aloqa markaziga ("Call-markaz") yoki uning rasmiy veb-saytiga murojaat qilish orqali ko'rsatilishi qo'lga qo'qildi.

KIMLARDAN to'lov undirilmaydi?

"Call-markaz" orqali so'rovnoma soat 09:00 dan 18:00 gacha ish vaqti davomida qabul qilinadi. Rasmiy veb-sayt orqali sutkani istalgan vaqtda murojaat qilinishi mumkin. Davlat xizmatlarini ko'rsatish vaqti davlat xizmatlari markazlari (vakolatli organ)ning ish vaqti doirasida belgilanadi.

Unga ko'ra, "Call-markaz" mas'ul xodimi ariza beruvchi nomidan so'rovnoma to'ldiradi va so'rovnomadagi ma'lumotlar tasdiqlangandan so'ng ariza beruvchiga to'lov inyoisini yuboradi. Mas'ul xodim ariza beruvchi bilan telefon orqali bog'lanib, so'rovnomada ko'rsatilgan joyga chiqadi hamda maxsus texnik qurilmalar yordamida (planshet yoki kompyuterga o'rnatilgan daktiloskopiya, printer va boshqalar) davlat xizmatini ko'rsatadi yoki davlat xizmatlaridan foydalanish uchun ariza yuboradi.

Davlat xizmatlarini joyiga chiqqan holda ko'rsatish yoki davlat xizmatlaridan foydalanishga ariza yuborish uchun Toshkent shahrida BHMning 50 foizi, viloyat markazlarida BHMning 40 foizi, tuman (shahar)larda BHMning 30 foizi miqdorida bir martalik to'lov undiriladi.

O'zgalor yordamiga muhtoj qariyalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra, mustaqil harakatlanish imkoniyati cheklangan hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatilgani uchun to'lov undirilmaydi.

Shuningdek, ushbu Reglament quyidagilarga:

- ✓ milliy haydovchilik guvohnomasini rasmiylashtirishga;
- ✓ O'zbekiston fuqarosi, O'zbekistonda doimiy yashovchi chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lmagan shaxsning identifikatsiyalovchi ID-kartasini hamda xorijga chiqish biometrik pasportini rasmiylashtirishga;
- ✓ jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Abror RAHMATOV,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari



SPORTCHILARGA BERILGAN IMTIYOZLARDAN XABARDORMISIZ?

Mamlakatimizda sport sohasida muhim huquqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Buning amaliy isboti sifatida Prezidentimizning 2023-yil 7-aprelda qabul qilingan "Ma'muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan quyidagi muhim imtiyoz va tartiblar joriy etilishini aytish mumkin:

- ✓ 2024-yil 1-yanvargacha qadar sport sohasini raqamlashtirish bo'yicha 24 ta yo'nalishdagi axborot tizimlarini o'z ichiga olgan "ERP Sport" yagona elektron boshqaruv tizimi ishga tushirilishi hamda UzASBO dasturidagi ma'lumotlar bilan integratsiya qilinishi;
- ✓ 2023-yil 1-iyuldan boshlab sportchi identifikatsiya kartalari uchun to'lovlar miqdorini uch barobarga kamaytirish hamda ulardan foydalanish muddatini 5 yil etib belgilash;
- ✓ 2024-yil 1-martdan boshlab sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan rasmiy musobaqalar, O'zbekiston chempionati va kubogida ishtirok etishi uchun sportchilarning mansubligi va ularning malakasini identifikatsiya kartalari (ID-karta) orqali aniqlash tartibini joriy etish;
- ✓ 2024-yil 1-iyuldan boshlab sportchilar va ularga birlashtirilgan trenerlar va boshqa mutaxassislarining barcha ma'lumotlari "ERP Sport" yagona elektron boshqaruv tizimida yuritilishi va bunda faqat ushbu tizim orqali olingan ma'lumotlar haqqoniy hisoblanishini joriy etish;
- ✓ 2024-yil 1-iyuldan esa sportchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi (xalqaro sport federatsiyasi/assotsiatsiyalari talablari bo'yicha joriy etiladigan hujjatlar bundan mustasno) boshqa har qanday sportchi pasportini joriy etish qat'iyati taqiqlanishi;
- ✓ 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat budjeti parametrlarini tasdiqlash bo'yicha har yili qabul qilinadigan qonun va Prezident qarorlarida sport sohasini rivojlantirish dasturlari uchun nazarda tutilgan mablag'lar Yoshlar siyosati va sport vazirligiga ajratilib, vazirlik tomonidan mustaqil taqsimlanishi;
- ✓ 2023-yil 1-iyuldan boshlab har yili Yoshlar siyosati va sport vazirligi hamda uning hududiy bo'linmalariga davlat budjetidan sport sohasini rivojlantirish dasturlari xarajatlari uchun ajratilgan mablag'lar tegishincha vazirlik va hududiy bo'linmalarining budjetdan tashqari, Sportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga o'tkazib borilishi hamda xarajatlarni moliyalashtirish Jamg'arma orqali belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tkazilgan daromadlar va xarajatlar smetasiga muvofiq amalga oshirilishi;
- ✓ 2023-yil 1-iyuldan boshlab "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining stipendiyasi" joriy etilishi va uni qo'lga kiritgan sportchilarga belgilangan tartibda o'zini o'zi band qilish huquqi berilishi;
- ✓ Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarga Prezident Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasiga idoraviy mansub bo'lgan tibbiyot muassasalarida belgilangan tartibda umrbod bepul tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi berilishiga kafolat berilishi belgilab qo'yildi.

Yuqoridagi kafolat va imtiyozlarning joriy etilishi esa mamlakatimiz nufuzini xalqaro maydonda ham e'tirof etishga, eng avvalo 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 67-maqsadida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Oybek IBROHIMXONOV,

O'zbekiston professional futbol ligasi yuriskonsulti



KOMPENSATSIYA TO'LANADI

– Mavsumiy xodim, ya'ni "isitish tizimi operatori"ga "xizmat ko'rsatuvchi" xodimlarga ustama haq to'lanadimi? Unga 6 oy ishlagan davri uchun oxirgi hisob-kitob puli beriladimi?

– Qonunchilikda mavsumiy xodimlarga qo'shimcha to'lovlarni, ustamalarni, mukofot va boshqa to'lovlarni to'lash tartibi alohida ko'rsatilmagan. Mavsumiy xodimlar korxonaning boshqa xodimlari kabi teng huquqlarga ega. Mehnat haqi shakli va tizimlari, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar korxonaning lokal hujjatlarida belgilanadi.

Mavsumiy xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ularga foydalanilmagan ta'til uchun kompensatsiya to'lanadi.

Savolga Sergeli tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti Artur ABDUMANNONOV javob berdi

Fuqaro Sh.I. To'rtko'l tuman adliya bo'limiga qilgan murojaatida tuman Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi bo'limiga qarashli davlat maktabgacha ta'lim muassasasi direktori Yu.T. Vazirlar Mahkamasining 2018-yl 28-martdagi qarori bilan tasdiqlangan "Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamenti" talablariga rioya qilmasdan 2 ta holatda ro'yxatdan tashqari bolani tarbiyalab kelayotganini bayon qilgan.



MUDIRAGA CHORA KO'RILDI

Mazkur holat bo'yicha Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 215⁵-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs sifatida ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi va bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari miqdorida jarima qo'llanildi.

Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limiga moliyaviy o'rganish yakunlari bo'yicha yetkazilgan zararni qoplash choralarini ko'rish to'g'risida taqdimnoma kiritilib, ortiqcha sarflangan mablag' davlat budjetiga undirildi.

Yuqoridagilarga ko'ra, Yu.T.ga o'z xizmat vazifasini bajarishda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari uchun tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

Mansur NURADDINOV,

To'rtko'l tuman adliya bo'limi boshlig'i

6 JARAYON

Fuqaro G.N.ning tegishli to'lovlar to'lanmaganidan norozi bo'lib, Adliya vazirligining "ishonch telefoni"ga qilgan murojaati Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.

QAROR IJROSI TA'MINLANDI

Aniqlanishicha, G.N. shahardagi 291-sonli maktabda ingliz tili fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan. 2023-yil 30-iyulda TKT imtihonidan C1 darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan.


Sertifikatni olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berishni so'rab, Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markaziga murojaat qilgan. Biroq unga sertifikatni olish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berilmagan, murojaati esa e'tiborsiz qoldirilgan.



Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 5-bandiga asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'qituvchilarining C1 darajadagi xalqaro sertifikatni olish uchun imtihon topshirish bilan bog'liq xarajatlari davlat budjetidan pedagog kadrlar malakasini oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar, davlat oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining xarajatlari esa oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilangan.

O'rganish jarayonida adliya boshqarmasining tegishli so'rov xatidan so'ng Markaz tomonidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining moliya bo'limiga C1 xarajatlarini qoplab berish uchun qo'shimcha mablag' ajratishni so'rab murojaat qilingan. Adliya boshqarmasining Markazga kiritilgan taqdimnomasiga asosan o'qituvchining xalqaro sertifikatni olish uchun sarflagan xarajatlari to'liq qoplab berildi. Murojaatga e'tiborsizlik qilgan Markaz mas'ul xodimlariga jinoyat ishlari bo'yicha Mirobod tuman sudining tegishli qaroriga ko'ra jarima jazosi tayinlandi.

Sherzod SHARIPOV,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi



*Eshit endi Vatan o'g'li mendin nasihat,
Qabul qilsang kelur boshingga davlat.
Vatan asli seningdur O'zbekiston,
O'g'izdin qolmish erdi bu guliston.*

Alixonto'ra SOG'UNIY

VATANGA MUHABBAT jasoratga undaydi

Konstitutsiyamizning 64-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburlardir".

1993-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining qarori bilan "14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni" deb belgilandi. Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash yurtning har bir farzandining vazifasidir. Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki armiya saflarida o'z burchini o'tab qaytgan vatandoshlarimiz, kelajakda harbiy xizmatga boradigan ming-minglab navqiron yigitlarning bayramidir.

"Vatan" atamasi aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anglatadi. Ibn Xaldun "Vatan – bu insonning tug'ilib-o'sgan yeri, uning go'daklik chog'idanoq mehr qo'ygan o'chog'idir", deb ta'rif bergan. Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat har bir inson farzandining fitratida mavjud.

Ayniqsa, qadimdan ajdodlarimiz Vatanga xizmat qilishni oliy burch deb bilishgan. Vatanning har bir qarich yerini ko'z gavharidek asrashgan. Vatanga muhabbat oliy tuyg'u, insonga Yaratganning ber-

gan eng ulug' ne'matlaridan biridir. Agar Vatan tuyg'usi va muhabbati inson qalbida bo'lmaganida, bugun yer yuzi shunchalik obod bo'lmadi.

Hazrati Umar roziyallohu anhu: "Agar Vatan sevgisi bo'lmaganida, yurtlar xarob bo'lardi", deganlarida naqadar haq edi. Ammo ba'zi insonlar va toifalar borki, bunday oliy ne'mat – Vatanni sevish va obod qilish ne'matidan mahrumdir. Oqil inson esa aql bilan tafakkur qilsa, o'z Vatanda unga qancha ne'matlar hisobsiz berilganini anglaydi. Inson mana shu ne'matlar sonini sanasa, adog'iga yetolmaydi. Umr bo'yi shu Vatanga qancha xizmat qilsa, shuncha kam.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ota-bobolarimiz Vatan himoyasi uchun hatto jonlarini fido qilishgan. Sohibqiron Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi butun dunyoda jasorat va sadoqatda tengsiz bo'lishgan. Ona zaminimizda yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Hakim Termiziy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Imom Zamaxshariy, Abu Ali ibn Sino, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'ioniy, Abu Rayhon Beruniy singari buyuk siymolar o'z ilmiy-tarixiy va diniy asarlari bilan Vatanni himoya qilish va vatanparvarlik haqida kerakli ma'lumotlarni bizga meros qoldirishgan.

Dinimizda Vatan himoyasidan o'zini olib qochish og'ir gunoh ekani va bunday holat halokatga olib borishi ta'kidlanadi. Hadisi sharifdan ma'lum bo'ladiki, Vatanni himoya qilishda inson jon berishga ham tayyor bo'lishi kerak. Chunki bu Vatanda bizning ajdodlarimiz, ota-onamiz, yaqin qarindoshlarimiz va oila ahlimiz yashashadi. Vatanni himoya qilish ularni himoya qilish bilan barobar. Ona Vatan hech qachon sotilmaydi, unga xiyonat ham qilinmaydi. Demak, bunday xiyonatni hech qanday diniy va dunyoviy qonun yoki ta'limot oqlamaydi, kechirmaydi.

Hazrat Alisher Navoiy Vatandandan, xalqidan norozi bo'lib uni tark etadigan kishilar oqibatda g'ariblikda sarson bo'lishini quyidagicha ta'kidlaydi:

*Vatan tarkini bir nafas aylama,
Yana ranju g'urbat havas aylama.*

Imom Muhammad G'azzoliyning bu boradagi so'zlari barchamizga hayotiy shior bo'lishi zarur: "Vatanning ham haqlari bo'ladi. Ularning birinchisi shu Vatanda yashaganda tinch-xotirjam, shukrona qilib yashash haqqidir. Shuningdek, Vatandan ketganda uni sog'inish, Vatan kamsitilganda g'azablanish, Vatanga hujum qilinganda uni himoya qilish ham Vatanning shu yurttda tug'ilib-o'sganlar zimmasidagi haqqidir".

Vatanga muhabbat oddiy insonlarga ham ulkan kuch-qudrat, azmu shijoat baxsh etib, tengsiz jasoratlarga undab, Vatan sharafini o'zining sharafidek bir xil himoya qiladi. Inson sharafi qancha ulug' bo'lsa, Vatan sharafi ham oqil insonlar nazdida ulug'dir. Ona yurtning tabarruk yeri boshqa o'lkalarning oltin xazinalaridan afzaldir. Albatta, Vatan himoyasi – sharafimiz rioyasi ekanini unutmasdan tunu-kun sergak bo'lib, ona yurtning har bir qarich yerini, xalqini aziz tutib, tilimiz dilimiz va jismimiz bilan himoya qilishimiz darkor. Zero, xalqning tinch va osuda hayoti, baxtu saodati mard va bahodir farzandlarning sadoqatiga, jasoratiga bog'liq. Yaratganning buyuk ne'mati – umrimizni faqat yaxshilikka, ezgulikka, halolliguna oqillikka, oliyanoblikka baxshida aylab, muqaddas Vatanga sodiqlikda o'tkazish barchamizga nasib etsin.

Baxtiyor QO'SHBOQOV,
Sirdaryo tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI X. SULAYMONOVA NOMIDAGI RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash o'quv kurslariga qabul boshlanganini ma'lum qiladi.

Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi 2024-o'quv yili uchun Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarini qayta tayyorlash o'quv kurslariga hujjatlarni qabul qilishni boshladi.

O'quv kurslarida ishtirok etish istagini bildirgan talabgorlar quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- markaz direktori (komissiya raisi) nomiga ariza (arizada talabgorning qaysi tilda ta'lim olish istagi ko'rsatiladi);
- pasport nusxasi;
- ma'lumoti to'g'risidagi diplom nusxasi;
- 3,5x4,5 hajmdagi ikki dona fotosurat;
- nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti nomidan tavsiyanoma (agar talabgor yuridik shaxs xodimi bo'lsa);

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markaziga kelib yoki pochta yoxud info@sudex.uz elektron pochta orqali sifatli (ko'rinarli, yaxshi o'qiladigan) darajada taqdim qilishlari (suhbat jarayonida hujjatlarning asli ko'rsatiladi) lozim.

Qabul komissiyasi tomonidan (o'zbek yoki rus tilida) suhbat 2024-yil mart oyining ikkinchi o'n kunligida Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi binosi (Toshkent shahri, Mirobod tumani Farg'ona yo'li ko'chasi 46-uy)da o'tkaziladi.

O'qish muddati olti oydan (24 hafta) kam bo'lmagan muddatda tashkil etiladi.

O'qish uchun to'lov miqdori o'quv jarayoni an'anaviy ta'lim shaklida tashkil etilganda, amaldagi bazaviy hisoblash miqdorining 45 (qirq besh) baravari miqdorida, masofaviy ta'lim shaklida tashkil etilganda esa, bazaviy hisoblash miqdorining 40 (qirq) baravari miqdorida amalga oshiriladi.

Hujjatlar 2024-yil 22-mart kuniga qadar qabul qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon:

71-209-11-55 ichki (214, 201)

Markaz veb-sayti: <https://sudex.uz/>

Elektron manzil: info@sudex.uz

Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr va magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarni quyidagi ekspertiza turlari bo'yicha dual ta'lim prinsipi asosida qayta tayyorlash o'quv kurslariga taklif etadi.

Sud ekspertiza sohasida dual ta'lim bo'yicha kadrlarni qayta tayyorlash ixtiyoriylik asosida sud ekspertizasining muayyan turi bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish istagini bildirgan talabgorlar uchun pullik shartnoma asosida tegishli ekspertiza turlari bo'yicha kamida olti oylik kurslar shaklida tashkil etiladi.

Talabgorlarni o'quv kursiga qabul qilish suhbat shaklida o'tkazilib, suhbat talabgorning tanlayotgan kasbga qiziqishi, soha bo'yicha tayanch bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida o'tkaziladi.

O'quv kursining nazariy qismi oliy ta'lim muassasalarining malakali professor o'qituvchilari tomonidan masofaviy yoki an'anaviy shaklda, nazariy qismi davlat sud ekspertiza muassalarida malakali sud ekspertlari tomonidan olib boriladi.

O'quv kursini muvaffaqiyatli tugatgan tinglovchilarga sud eksperti sifatida kasbiy layoqatni tasdiqlovchi sertifikat beriladi va ular kelgusida davlat va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida sud eksperti sifati ishlashi mumkin.

O'quv kurslarida ishtirok etish istagini bildirgan talabgorlar info@sudex.uz elektron pochta orqali hamda bevosita X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markaziga quyidagi hujjatlarni topshirishlari mumkin:

- davlat sud-ekspertiza muassasasiga muassasa rahbari nomiga ariza (arizada talabgorning muassasada ta'lim beriladigan tillardan birida imtihon topshirishi va ta'lim olishi ko'rsatiladi);
- talabalar uchun tahsil olayotganligi haqida ma'lumotnoma;
- Hujjatlar 2024-yilning 26-yanvar kuniga qadar qabul qilinadi.

Qo'shimcha ma'lumotlarni (71) 209-11-55 ichki (214, 201) telefon raqami hamda info@sudex.uz elektron pochta orqali olishingiz mumkin.

ADLIYA VAZIRLIGI QUIYIDAGI NOTARIUS LAVOZIMLARIGA TANLOV O'TKAZILISHINI E'LON QILADI

Navoiy viloyatida

Tomdi tuman davlat notarial idorasida 1 nafar.

Qoraqalpog'iston Respublikasida

Bo'zatov tuman davlat notarial idorasida 1 nafar.

Hujjatlarni taqdim etishning oxirgi sanasi 2024-yil 11-yanvar.

"Notariat to'g'risida"gi qonunning 2-moddasiga asosan yigirma besh yoshdan kichik va oltmish besh yoshdan katta bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil stajirovka o'tagan, malaka imtihonini topshirgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi notarius bo'lishi mumkin. Sudyalik lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki notarius yordamchisi yoxud adliya organlarining notarial faoliyatga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog'liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar uchun stajirovkadan o'tish talab qilinmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining ishi notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv xodimi yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan shaxslar, agar ularning vakolatlari tugatilgan paytdan e'tiboran besh yil o'tmagan bo'lsa, olti oy muddat stajirovka o'taydi.

Quyidagilar notarius bo'lishi mumkin emas:

- muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs; qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;
- notarius, advokat, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sudya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolatlari o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun tugatilgan shaxs – uch yil mobaynida.

Davlat notarial idorasi notariusini lavozimiga tayinlash bo'yicha tanlov va xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish bo'yicha malaka imtihonini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning (ro'yxat raqami 3114, 2019-yil 4-yanvar) 7-bandiga asosan tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga quyidagi hujjatlarni elektron shaklda taqdim etadi:

- komissiya nomiga mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza;
- mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan so'rovnoma;
- malaka imtihonini topshirganligi (qayta topshirganligi) haqida hududiy adliya organi huzuridagi malaka komissiyasining qaroridan ko'chirma yoki belgilangan tartibda stajirovka o'taganligi haqida ma'lumotnoma.

Nizomning 72-bandiga muvofiq tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxsdan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Nizomning 9-bandiga ko'ra tanlov bo'yicha talabgorlar mazkur Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga elektron shaklda, ular qabul qilib olinganligi to'g'risida ma'lum qilgan holda taqdim etadi.

- Elektron shaklda taqdim etilgan ariza va unga ilova qilinayotgan har bir hujjat haqiqiyli-gi saqlanishini ta'minlovchi (har bir dyuymga 200 nuqtadan kam bo'lmagan) alohida fayl ko'rinishida bo'lishi kerak. Har bir fayl o'lchami 10 mbdan oshmasligi lozim.

- Hujjatlar **"PDF"** (*portable document format*) formatida skaner qilingan holda jo'natiladi. Hujjatlar Adliya vazirligining r.abdigabbarov@adliya.uz elektron pochta manziliga yuborilishi lozim.

- Hujjatlarni topshirishda yuzaga keladigan savollar uchun Adliya vazirligining **(71) 207-04-51 (ichki raqam 1384)** telefon raqamiga murojaat qilish mumkin.

"Notariat to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunining 152-moddasi va Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 18-dekabrda 12-son yig'ilish qaroriga asosan Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xurramov Kamol Azamatovichga (litsenziya KS 0006, 2020-yil 23-aprel), Qarshi shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qurbonova Gulhayo Baxriddin qiziga (litsenziya KS 0032, 2020-yil 27-aprel), Kasbi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xudoyberdiyev Jo'ra Qo'ysinovichga (litsenziya KS 0043, 2020-yil 27-aprel), Koson tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nafasova Kamola Ulashevna (litsenziya KS 0036, 2020-yil 27-aprel), Yakkabog' tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Turayeva Dilafuz Sezanovna (litsenziya KS 0042, 2020-yil 27-aprel) va Qarshi tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Pirmatov Asror Askaraliyevichlarga (litsenziya KS 0010, 2020-yil 23-aprel) viloyat adliya boshqarmasi tomonidan berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishini 1 oy muddatga 2023-yil 25-dekabrden 2024-yilning 25-yanvar kuniga qadar to'xtatildi.

Advokatlar palatasi Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2023-yil 9-dekabrda 13-son yig'ilish qaroriga asosan viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 13-dekabrda buyrug'i bilan "Madad maslahatchisi" advokatlar hay'ati advokati Aripov Komil Majitovichning advokatlik maqomi 3 oy muddatga 2023-yil 9-dekabrden 2024-yil 9-mart kuniga qadar to'xtatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 14-dekabrda 317-um-son buyrug'iga asosan advokat Ermatov Xolmaxammat Sherovichga 2022-yil 5-avgustda berilgan AN 000383 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya, advokat Tashxodjayev Murodjon Valijonovichga 2020-yil 10-sentabrda berilgan AN 000260 raqamli, Iminov Sirojiddin Abdulxoshim o'g'liga 2020-yil 6-noyabrda berilgan AN 000277 (L-70663708) raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi "Notariat to'g'risida"gi Qonunining 152-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 232-um-son buyrug'iga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdjalilov Ulug'bek Abdumannovichga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 1 oy muddatga 2023-yil 29-dekabrden,

– G'allaorol tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Abdiyev Baxtiyor O'ktamovichga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 1 oy muddatga 2023-yil 29-dekabrden,

– G'allaorol tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Melibayev Iskandar Abduvaitovichga berilgan litsenziya (GZ 0014, 21.04.2020-y.) xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya va notarius maqomi 15 kun muddatga 2023-yil 30-dekabrden to'xtatildi.

8 ADLIYA FAXRIYLARI



Inson butun umr ezgu niyat, cheksiz orzu-umidlar bilan yashaydi, yaxshi nom qoldirish uchun mehnat qiladi, yelib-yuguradi. Hayotning qonuni shunday. Yoshlik ham o'tadi. Keksalik eshik qoqqanda, inson hamisha yaxshi so'zga, e'tiborga ehtiyoj sezadi. Sevimli kasbi, kasbdoshlarini sog'inadi. Hamkasblarning, yaqinlarning, shogirdlarning yo'qlovidan boshi osmonga yetadi. Mehr ko'ngillarni ko'taradigan, insonga yashash uchun kuch beradigan bebaho tuyg'u.

Adliya vazirligi Faxriylar kengashi tashabbusi bilan 2023-yilda gazetamiz sahifalarida "Adliya faxriysi" rukni ostida adliya idoralarda uzoq yillar xizmat qilgan, hozirda keksalik gashtini surayotgan yubiley yoshidagi faxriylarni qutlash, ularning ibratli hayoti va mehnat faoliyatini yoritish yo'lga qo'yildi. Bu ezgu tashabbus Yangi – 2024-yilda ham davom etadi. Yangi yildagi qutlovimizning ilk sahifasi sirdaryolik huquqshunos Rahima Mingbayeva hamda samarqandlik adliya faxriysi Gulchehra Fayzullayeva atalgan.

HAYOTNING QONUNI shunday...



MEHNATIDAN QADR TOPGAN NOTARIUS

Rahima opa 1954-yil 1-yanvarda Boyovut tumanida tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1975-yil Boyovut tuman sudida sud majlisi kotibi vazifasidan boshlagan. Oradan besh yil o'tib, Shirin shahar sudida sud ijrochisi lavozimida ish yuritdi. R. Mingbayevaning notariuslik faoliyati 1985-yildan boshlangan. Dastlab Boyovut tuman davlat notarial idorasi notariusi, keyinchalik Shirin shahar davlat notarial idorasi notariusi, Guliston shahar 1-sonli davlat notarial idorasi notariusi, Sirdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius sifatida xalq xizmatida bo'ldi.

Sohada salkam qirq yil sadoqat bilan mehnat qildi. Huzuriga kimdir nizoli mol-mulkiga doir hujjat bilan, kimdir merosni bo'lishish uchun muammolariga yechim topib berishni so'rab kelganda, ularga befarq bo'lmadi, to'g'ri yo'l ko'rsatdi, amaldagi qonunlarimizga tayanib huquqiy maslahat berdi, muammolarni qonun yo'li bilan bartaraf etishga yordam ko'rsatdi. Bir so'z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta'minlashga munosib hissa qo'shdi.

O'z kasbiga sadoqatli Rahima opa xizmat vazifasini sidqidildan bajarish bilan birga, mahalla, maktab, oliy ta'lim dargohlaridagi uchrashuv va muloqotlarda fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning huquqiy bilimi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid qimmatli fikr-mulohazalarini bo'lishishni o'zining huquqshunoslik vazifasi, vatanparvarlik burchi deb hisobladi. Shu boisdan ham elda aziz bo'ldi, qadr topdi.



HUJJATLAR BILAN "TILLASHGAN" AYOL

Gulchehra Fayzullayeva asli ishtixonlik. Samarqand davlat universitetining rus filologiyasi fakultetini tugatgach, 1976-yildan 1998-yilgacha Samarqand shahar Temiryol tuman FHDY bo'limining inspektori vazifasida faoliyat yuritgan. U fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limida ishlab katta tajriba to'pladi, bilmaganlarini o'rgandi, FHDY idorasiga keladigan har bir fuqaroning quvonchu tashvishiga sherik bo'ldi, ularning talab va istaklariga har doim quloq tutdi. Ba'zida yangi tug'ilgan farzandiga ism qo'yish borasida maslahat so'rab kelgan ota-onalarga samimiy taklif bildirsa, gohida o'zaro kelisha olmay, nikohni bekor qilishga ahd qilib, idoraga alam bilan kelgan yosh oila a'zolariga oilani saqlab qolish uchun qat'iy maslahat berishni uddalashi, albatta, uning o'z ishiga sadoqati, salohiyati va mehridan dalolatdir.

Gulchehra Bahritdinovnaning keyingi mehnat faoliyati Samarqand viloyat adliya boshqarmasi FHDY arxivi bilan bog'liq. Ma'lumki, FHDY organlari yozuvlarni tuzish orqali tug'ilganlik, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, o'lim kabi

fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etadi. Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari davlat ahamiyatiga molik hujjatlar hisoblanishini, bu hujjatlar FHDY organlarida qayd etilgan vaqtdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanishini nazarda tutadigan bo'lsak, bu vazifaning naqadar mas'uliyatli, sharafliligi va shu bilan birga mashaqqatli ekanini anglaymiz.

Gulchehra Fayzullayeva FHDY arxivi mudirasi sifatida mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga oldi, hujjatlar bilan tillashishga kirishdi. Chunki yaqin yillargacha barcha arxiv hujjatlari qog'oz shaklida yuritilganini yaxshi bilamiz. O'ttiz yillik mehnat faoliyati davomida qancha-qancha fuqarolarga beminnat xizmat ko'rsatgan arxiv mudirasi uchun har bir hujjatning, har bir raqamning o'z o'rni bor.

Bugun davr o'zgardi, islohotlar chuqurlashdi, imkoniyatlar kengaydi. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan FHDY organlarida saqlanayotgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini raqamli ko'rinishga o'tkazishga erishildi. FHDY arxiv ma'lumotlarini raqamlashtirish fuqarolarning so'rovlariga asosan arxiv hujjatlaridan ma'lumotnomalar berish muddatini 15 ish kunidan sanoqli daqiqalargacha qisqartirish imkonini berdi.

Adliya tizimidagi bunday o'zgarishlar G. Fayzullayeva kabi soha faxriylarining o'tgan davrdagi xizmatini, qo'lda qayd etilgan hujjatlar mas'uliyatini yana bir karra eslashga, qadrlashga, e'tirof etishga undaydi.

Qutlug' yoshga yetgan muhtarama faxriylarimizga saodatli umringiz uzoq bo'lsin, deymiz!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri



Bu ibora ommaviy mavzularga o'ch, sensatsiya orqasidan quvaydigan, san'at ahlining shaxsiy hayotiga alohida e'tibor qarata-digan, biroz toshi qengil matbuot nashrlariga nisbatan ishlatiladi. Bu iboraning paydo bo'lish tarixi esa quqidagicha. 1895-yil AQShda rassom Richard Autkolt Nyu-Yorkda chop etiladigan "The World" gazetasida bir necha qumoristik ruhdagi rasmlarini chop ettiradi.

"SARIQ MATBUOT" bu ibora tarixini bilasizmi?

Ushbu rasmlar ichida sariq ko'ylak kiygan bolakay ham bo'lib, uning tilidan bir qator kulgili gaplar beriladi. Tez orada Amerikaning boshqa bir – "New York Journal" gazetasida ham xuddi shunday rasmlarni chop eta boshlaydi. Shundan keyin ikki gazeta o'rtasida ana shu sariq ko'ylakli bolakay rasmini kim birinchi chop etganligi masalasida keskin bahs boshlanadi. Bahs shunday qizg'in kechadiki, u ko'pchilikning diqqatini tortadi. 1896-yil bunday bema'ni bahsdan to'yib ketgan amerikalik siyosatshunos jurnalist Ervin Uordeman maqola yozib, yuqorida nomlari tilga olingan ikki gazetani nafrat bilan "sariq matbuot" deb ataydi (sariq ko'ylakli bolakay rasmini nazarda tutib) va shundan so'ng bu ibora butun dunyo jurnalistikasiga kirib qoladi.

Jaloliddin SAFOYEV